



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

BO'LAJAK ONA TILI VA ADABIYOTI FANI O'QITUVCHILARINING NUTQIDAGI QUSURLARNI TO'G'IRLASH METODIKASI

Otabek Kurbanbayev

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili kafedrasi stajor-o'qituvchi

Iqbol Sharipboyeva

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi

Durdona Sobirova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari nutqidagi ba'zi qusurlari va ularning sabablari, kelib chiqish va ba'zi yechimlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Rasmiy til, tasvir vositalari, iboralar, intonatsiya, mimika, kommunikativ talablar, kompetentlik, duduqlanish.

Abstract: This article provides information about some defects in the speech of future Uzbek language and literature teachers and their causes, origins, and some solutions.

Key words: Formal language, image tools, expressions, intonation, facial expressions, communicative requirements, competence, stuttering.

O'zbek xalqi — azaldan so'zga usta, hazilni o'rnila qo'ya oladigan va har gapida ma'no mujassamlashgan xalq. Shuning uchun ham o'zbek ajdodlar hikmatiga amal qilib, o'ynab gapirsa ham, o'ylab gapiradi. Va albatta bu eng avvalo oil ava undan keyin maktabda shakllana boradi. Xususan, bu mas'uliyat, buni shakllantirish juda ko'p tomondan o'qituvchiga bog'liq. Shu uchun mamlakatimizda ham barcha o'qituvchilar adabiy til meyorlariga xos tarzda dars jarayonini olib borishi zarur. Bu maqola orqali aynan shu xususida batafsilroq ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Adabiy til bu mamlakatda yashovchi har bir shaxs uchun qat'iy belgilangan, nutqiy madaniyatga har tomonlama mos keluvchi va jamiyatdagi insonlarning madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi rasmiy tildir. Ushbu til, asosan, radio, televideniya, matbuot, rasmiy uchrashuvlarda qo'llanishga qaramasdan, hatto biz ushbu holatlarda ham juda ko'pchilik xatolarga guvoh bo'lishimiz mumkin. Jurnallardagi ba'zi imloviy xatolardan tortib katta kitoblardagi xatolargacha yoki ko'cha "afisha"laridan to rasmiy hujjat hisoblangan tug'ilganlik haqidagi guvohnomalargacha talaygina xato-kamchiliklar va bu sohalarda malakasiz xodimlar bizda talaygina.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

Biz bu kamchiliklar asosini, shubhasiz, maktabdagisi o‘qituvchilardan, asosan, ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilaridan deyishimiz o‘rinli deb hisoblayman. Zero, ilmning boshlanish negizi maktab bo‘lsa, adabiy til tushunchasi mazmun—mohiyati va uni o‘quvchilarga o‘rgatuvchilar bu o‘qituvchilardir. Agar maktabda hamma fanlar adabiy tilda o‘tilsa o‘quvchi ham, shubhasiz, adabiy til ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtiradi va bu tilimizning yanayam ko‘rkam va jozibador bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan Rus sharqshunos olimi S.N.Ivanov “go‘zal fors mumtoz she’riyatining kichik singlisi bo‘lgan turkiy nazmiyot yuksalib, opasidan ham bo‘ychan bo‘ldi” degan go‘zal o‘xshatish qilgan.¹ Demak, adabiy til faqat adabiy so‘zlardan emas, balki chiroyli tasvir vositalari, iboralar va birikmalardan ham iborat ekan. Shubhasiz, bu vositalar ham maktabda ona tili fanida o‘rgatiladi. Tabiiyki, savol tug‘iladi: “shu o‘qituvchilarning barchasi talabga javob bera oladimi?” Albatta “yo‘q”. aynan shu masalani hal etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Ayni damdagi iqtisodiy sharoitda mehnat bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun har bir shaxsdan raqobatbardoshlik talab etadi. Bu esa o‘z navbatida kasbiy komponentlikni talab etsa, adabiyot o‘qituvchisidan ma’naviyatni ham talab etadi. Adabiyot o‘qituvchisining o‘quvchilar oldida obro‘-e’tibori baland bo‘lishi uchun har ikki xususiyat uyg‘unlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki adabiyot o‘qituvchisi inson ko‘ngli bilan ishlaydi. Adabiyot darslari ko‘ngil tarbiyalash darslaridir. Faqat bilim bilan qalbga kirib bo‘lmaydi. Shuningdek, hurmat, e’tirof, obro‘ singari tushunchalar borki, ularni talab qilib, so‘rab yoki sotib olib bo‘lmaydi. Ularni shaxsiy fazilatlar, ma’naviy yetuklik va bilimlilik bilan qozonish kerak bo‘ladi.²

O‘qituvchi mavzu tushuntrayotganida uning nutaqidagi asosiy vosita bu urg‘u bo‘lishi kerak. Agar mavzu oxirigacha bir xil tonda olib borilsa, u auditoriya uchun umuman qiziq bo‘lmaydi va o‘quchilarni boshqa ish bilan shug‘ullanishi yoki ba’zi hollarda uqlab qolishiga sabab bo‘ladi. Ba’zi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘quvchilar o‘qituvchini 10 daqiqagina diqqat bilan tinglay olaydi agar ushbu vaqt mobaynida o‘qituvchi nutqida hech qanday intonatsiya yoki mimikalar sezilmasa bu o‘quvchining bee’tiborligini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari yana bir muhim omil bu to‘g‘ri so‘zlay olish hisoblanadi. Ya’ni nutqida hech qanday qusurlar: duduqlanish, so‘zini topa olmay qolishlik, har xil parazit so‘zlar va hokazo.

¹ Raupova L. “Nutq madaniyati” – Toshkent “INNOVATSIYA-ZIYO” 2021

² Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova “Adabiyot o‘qitish metodikasi” Toshkent-2018



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkuri ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.

Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

- 1) so‘z ustida ishslash;
- 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishslash;
- 3) bog‘lanishli nutq ustida ishslash.

O‘qituvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator kommunikativ talablarga rioya qilinadi:

- nutqning mazmundor bo‘lishi;
- mantiqiylik bo‘lishi;
- nutq aniq va til vositalariga boy bo‘lishi;
- tushunarli va ifodali bo‘lishi.

-muomalali bo‘lish ya’ni sharqona odob va madaniyatli shaxs sifatida o‘zini tutabilish.

O‘qituvchining nutq madaniyati o‘quvchilar nutqini o‘stirishda ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchilar daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi bilan u bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

Adabiy til me’yorlarining tavsifiy tilshunoslik fanlariga oidligini inobatga olsak, hozirgi o‘zbek adabiy tilining, aytaylik, normativ grammatikasi nutq madaniyatining asosiy zamini ekanligi ayon bo‘ladi. Tilshunos B.N.Golovin ta’kidlaganidek, "nutq madaniyati fan va o‘quv predmeti sifatida til haqida normativ grammatikada bayon qilingan ma'lumotlarga suyansa-da, til materialiga yondashuv nuqtai nazaridan undan farq qiladi: tilning grammatik faktlari nutq madaniyatini, eng avvalo, me’yorlarga tobelligi — amal qilinganligi, ikkilanilganligi va buzilganligi bilan qiziqtiradi. Grammatik shakl va kategoriyalarning grammatik tabiatini emas, balki aynan me’yoralashish jihatni nutq madaniyati uchun ahamiyatlidir."³

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir jamiyat yuksalishi uning madaniyati, tili va muomalasi bilan bog‘liq ekan, biz nafaqat o‘z nutqimizga, balki, yon-atrofimizdagi insonlarning ham muomalasiga bee’tibor bo‘lmashligimiz darkor. Oila – tarbiya maskani bo‘lsa, maktab – ta’lim maskani. Bu ikki ulug‘ dargohdan biz

³Hamidov Abdumalik “O‘QITUVCHI NUTQI MADANIYATI” Termiz-2013



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

har tomonlama barkamol insonlarni yetishtirib chiqarishimiz darkor. Bu esa bevosita ota-onan va o‘qituvchiga bog‘liq ekanligini unutib qo‘ymaylik. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo‘lmaydi. “O‘z fikrini mutlaqo mustaqil. Ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin.” (I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raupova L. “Nutq madaniyati” – Toshkent “INNOVATSIYA-ZIYO” 2021
2. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova “Adabiyot o‘qitish metodikasi” Toshkent-2018
3. Hamidov Abdumalik “O‘QITUVCHI NUTQI MADANIYATI” Termiz-2013